O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 17 - oktabr 422-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4 -apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari xaqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o’rinbosarlari S.Mirsagatov, I.Dostonov, tuman Adliya bo’limi hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov) bilan birgalikda bir oy muddatda tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tariflarlar miqdorini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun tuman hokimiga kiritsin.

3. Tuman mahalla va nuroniylarni qo’llab-quvvatlash bo’limi (I.Saidikarimov), tuman sanitariya epidemiologok osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi (A.Sultonov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov):

- fuqarolarni o’zini-o’zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash

kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

- sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlash, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasini ajratishni yer to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov) hamda qabristonlarning ma’muriyatlari:

- xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo’yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko’rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarni o’z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, xaykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo’lgan inshootlarni o’rnatish, ob’yektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Diyor ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**